

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI
O'ZBEK TILI, ADABIYOTI VA FOLKLORI INSTITUTI
ALISHER NAVOIY NOMIDAGI DAVLAT ADABIYOT MUZEYI
ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI SHARQSHUNOSLIK
INSTITUTI
O'ZBEKISTON YOZUVCHILAR UYUSHMASI

**ALISHER NAVOIY ADABIY VA
ILMIY MEROSINI O'RGANISH
MASALALARI**

№ 69

(XALQARO KONFERENSIYA MATERIALLARI)

2024-yil 7-fevral

TOSHKENT – 2024

BBK 438.15,312.1

UO'K 315,43(5T)

A 78

Alisher Navoiy adabiy va ilmiy merosini o‘rganish masalalari / – “Yashil yaproq nashriyoti”. – Toshkent, 2024. – 457 b.

Ushbu to‘plam O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti, Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyi hamda Respublika Yozuvchilar uyushmasi hamkorligida 2024-yil 7-fevral kuni o‘tkazilgan Alisher Navoiy adabiy va ilmiy merosini o‘rganish masalalariga bag‘ishlangan 69-ilmiy anjuman materiallaridan tashkil topgan.

To‘plamdan filolog mutaxassislar, jumladan, ona tili va adabiyot fani o‘qituvchilari, doktorantlar, tayanch doktorantlar, magistratura va bakalavriat bosqichi talabalari foydalanishlari mumkin.

(Maqolalarning ilmiy saviyasi uchun mualliflarning o‘zлari mas’uldirlar)

Tahrir hay’ati:

Maqsud ASADOV, f.f.d., prof., bo‘lim mudiri
Qodirjon ERGASHEV, f.f.d., yetakchi ilmiy xodim
Burobiya RAJABOVA, f.f.n., yetakchi ilmiy xodim
Sayfiddin RAFIDDINOV, f.f.n., katta ilmiy xodim
Zulayho RAHMONOVA, f.f.b.f.d, katta ilmiy xodim
Shahnoza RAHMONOVA, kichik ilmiy xodim
Hamida ASHUROVA, kichik imiy xodim
Elnura QURBONOVA, doktorant

To‘plib, nashrga tayyorlovchilar:

Dilmurod ASQAROV
Nasiba JO‘RAQULOVA
Mohigul MAVLONOVA
Muslima XOLBOYEVA
Sarvinoz OTAQULOVA

ISBN 978-9941-1378-1-1

©Yashil yaproq nashriyoti, 2024

NAVOIY SHE'RIYATIDA INSON TANA A'ZOLARINING QO'LLANISHI XUSUSIDA

Zilola AMONOVA,
Buxoro davlat universiteti dotsenti, f.f.d.,
zilolajonamonova@gmail.com

Maftuna TO'RAYEVA,
Buxoro davlat universiteti,
Filologiya va tillarni o'qitish (o'zbek tili) ta'lim yo'nalishi
2-bosqich talabasi
tmaftuna933@gmail.com

ANNOTATSIYA

Maqolada Alisher Navoiyning lirik merosi tarkibidagi ayrim g'azallarda qo'llanilgan somatik birliklar tahlilga tortilgan. Mazkur masala bayonida shoir mahoratiga, ifoda uslubidagi an'anaviylik va novatorlikka ham ahamiyat qaratilgan.

Kirish so'zlar: yuz, lab, qosh, soch, xol, qad, zulf, oshiq, ma'shuqa

АННОТАЦИЯ

В статье анализируются соматические единицы, используемые в некоторых газелях лирического наследия Алишера Навои. При описании этого вопроса также акцентируется внимание на мастерстве поэта, традиционности и новаторстве в стиле высказывания.

Ключевые слова: лицо, губа, бровь, волосы, родинка, талия, возлюбленный.

ABSTRACT

The article analyzes the somatic units used in some ghazals of Alisher Navoi's lyrical heritage. In the description of this issue, importance is also focused on the poet's skill, traditionality and innovation in the style of expression.

Key words: face, lip, eyebrow, hair, mole, waist, lover

Alisher Navoiy – turkiy she'riyatni yuksak cho'qqiga ko'targan buyuk so'z san'atkori. Uning umumbashariy g'oyalari, xususan, to'g'riso'zlik, halollik, adolatsevarlik, poklik, saxiylik, mehnatsevarlik, bag'rikenglik, vatanparvarlik, do'stlik, ilmsevarlik kabi o'lmas g'oyalari

jahon madaniyati taraqqiyotida sezilarli ta'sir o'tkazgan. Navoiy oshiqona g'azallarida mahbubaning go'zal portretini chizadi: uning qomati, qoshlari, kipriklari, lablari, tishlari kabi go'zallik uzvlarini betakror tasvirlar, nozik iboralar orqali ifodalaydi. Fikrimiz isboti sifatida quyidagi baytni tahlilga tortamiz:

*Yuzidinkim xijildir gul, parishon har taraf kokul,
Sochib gulbarg uza sunbul, to 'kub kofur uza anbar [1.184].*

Baytda ma'shuqa husni uning go'zallik uzvlarining ta'rifi orqali yoritilgan. Jumladan, yor yuzi shu qadar go'zalki, hattoki, gullar ham uning yuzidan xijolatda. Har tarafga yoyilgan kokillari esa parishon. Bu go'yoki gul bargi uzra sunbulning sochilishi, ya'ni kofir uzra anbarning to'kilishi kabidir. Ulug' shoир gul bargi orqali yorning yuzini, sunbul orqali sochini, kofur deganda ma'shuqaning oppoq ko'r kam chehrasini, anbar bilan yorning xushbo'y qora sochlarni nazarda tutadi. Ijodkor istiora san'atining imkoniyatlaridan unumli foydalanib, o'z mulohazalarini badiiy ifodalagan. Shuningdek, tanosiblar guruhi ham baytda badiiylikni ta'minlagan: yuz, kokul; gulbarg, sunbul.

Ta'kidlash lozimki, shoирning ko'pgina she'rlarida yorning xushbo'y qora sochining ta'rifi keltiriladi. Sharq musulmon xalqlarida, jumladan, o'zbeklarda xotin-qizlar sochining uzunligiga alohida e'tibor qaratilgan. Qolaversa, qizlarning sochlari uzun bo'lishi uchun maxsus muolajalar ham ado etilgan. Shu nuqtayi nazardan, mumtoz adabiyotimizda ham uzun soch o'ziga xos go'zallik belgisi sifatida tilga olinadi. Alisher Navoiy ijodida ham ayni jihatni ko'rish mumkin:

*Zulfi egniga yetar gar sochi yerga sudralur,
Tengdurur qaydim uchun gar bir - qarish, gar yuz quloch [2.85].*

Baytda qayd etilishicha, yorning zulfi engi (yonog'i)ga yetadi, ammo uning sochlari esa yerga sudraladi. Lirk qahramon ma'shuqaning "bir - qarish" zulfiga va "yuz quloch" sochiga maftun bo'lib, bularning har ikkisi ham "qaydim" (bog'lanishim) uchun tengdir, deya e'tirof etadi. Shoир nazdida bir qarich bo'lsa-da, zulfning mavqeyi yuz quloch bo'lган sochdan kam emas. Ya'ni oshiqning ularga bo'lanishida soch va zulf bir xil o'rin egallaydi. Mazkur bayt oshiqning ma'shuqa zulfi va sochlariiga asir bo'lib qolishiga bo'lган iqrordan dalolatdir. Baytning badiiy ta'sirchanligi ulug' shoирning zulf va soch tanosibidan mohirona foydalanganligida ham ko'rindi. Yana bir necha

baytlarda ham ma'shuqa sochlaringin ta'rifini ko'rish mumkin. Bunda soch bilan birgalikda yorning boshqa tana a'zolarini ham madh etadi:

*Soching qarong'u tun, ey sarvqadi shirin lab,
Yuzung tun o'rtasida jilva aylagan kavkab [2. 51].*

Baytga e'tibor qaratsak, yorning sochi, qaddi, labi, yuzining ta'rifi keltirilgan. Shoir tanosib bilan tashbehdan unumli foydalanib, fikr ta'sirchanligiga erishgan. Ya'ni soch, qad, lab, yuz tanosib san'atining asosi bo'lsa, ularning asosli narsa-predmetlarga o'xshatilishi esa tashbehni hosil qilgan. Masalan, soch – qorong'u tunga, qad – sarvga, yuz – kavkab (yulduz)ga. Bu o'rinda "shirin lab" sifatlashi ham yanada jozibadorlikni ta'minlashga xizmat qilgan. Demak, shoir yorning go'zallik uzvlari sifatida somatizmlarni birma-bir ta'riflab, ularning ko'rinishi va holatini tashbeh vositasida ifodalagan. Bu esa ma'shuqa jamolining ta'rifida somatizmlar muhim o'rin tutishini ko'rsatadi. Yuqoridaq baytlarda yuz va kokul, qad, lab orqali yorning go'zalligi madh etilsa, quyidagi baytda esa shular bilan bir qatorda yorning chiroyli xoli ta'rifi keltiriladi:

*Yuzungda xol safhada tomgan kabi qora,
Xoling malohati tuz erurkim qorada bor [2. 149].*

Ushbu bayt ham nihoyatda ajoyib ifodaga ega. Dastlab ma'shuqaning yuzi qog'oz sahifasidek oppoq ekanligi aytildi. Mana shu yuzdag'i xol qog'oz sahifasiga tomib tushgan qora siyohga o'xshatiladi. Xolining chiroyi to'g'ri chizilgankim, chunki unda qoralik bor. Ko'ryapmizki, ikkinchi misrada Navoiy o'zi tasvirlagan fikrni ma'qullagandek xolga aniqlik kiritadi. Bunda qora-xol, safha - yuz parallel qo'yilgan. Yuz va xol inson tana a'zosi sifatida metaforik ma'no ifodalab kelgan. Baytda tashbihdan mohirona foydalilanligini ko'ramiz. Shoir baytlarda yorning go'zal jamolini, uning ta'rif-u tashbehini keltirish bilan cheklanmay, bu chiroyning oshiq ruhiy holatiga ko'rsatgan ta'sir darajasini ham qalamga oladi:

*Shafaqgun yuz hiloliy qosh ila to jilvagar bo'ldung,
Ko'zumda bo'ldi qon zohir, qadimda bo'ldi ham paydo [3. 49].*

Ma'shuqaning "shafaqgun" (qizil rang) yuzlari, "hiloliy" (yangi chiqqan oy) qoshlari bilan "jilvagar" bo'lishi, oshiqning ko'zlarida qonning, qadlarida xam (egiklik)ning paydo bo'lishiga sabab bo'lган.

Yuzning shafaq rangiga, qoshning hilolga tashbehi an'anaviy holat bo'lsa, ikkinchi misradagi oshiq ko'zida qon va qaddida xam (egiklik) ning paydo bo'lishi bir tomondan birinchi misradagi tashbehlarini to'ldirsa, ikkinchi tomondan o'ziga xos novatorlik deyish mumkin. Ya'ni shafaqrang bilan qon, hilol bilan xam (egiklik) ning bir-biriga mos kelishi badiiy ta'sirchanlikni yanada oshirgan. Demak, hilol va xam (egiklik) faqatgina yorning chiroysi qayrilma qoshining tashbehi bo'libgina qolmay, hijron va ayriliqdan iztirob chekkan oshiq qaddining badiiy tasviri ham bo'la oladi.

Ulug' shoir yor go'zalligi ta'rifi bilan birgalikda oshiq ruhiy holatiga ham urg'u berar ekan, bu o'rinda xalq udumlari, rasm-odatlariga ham e'tibor qaratadi:

*Yangi oy ko 'rgach xaloyiq ko 'zni yummoq rasm erur,
Lekin ochildi ko 'rub mushkin hilolingdin ko 'zum [1. 388].*

Ma'lumki, xalq orasida yangi oy chiqqach, unga darhol qaralmagan, ya'ni ko'zni yumib, avval, yangi boshlangan oyning xayrli kelishini tilab duoyi xayr qilingan. So'ngra yuzga fotiha tortilgandan keyin yangi oyga qarash mumkin bo'lган. Shoir ana shu xalq udumining "buzilish sababini" ikkinchi misrada keltiradi. Ya'ni ma'shuqaning yangi oy kabi qoshlarini ko'rgan oshiqning ko'zları yumilish o'rniga, aksincha, go'zallik va latofatidan ochiladi. Baytdagi sifatlash (mushkin) hamda istiora (hiloling) san'atlari fikr ifodasida ta'sirchanlikni ta'minlagan.

Mumtoz adabiyotimizda yaratilgan oshiqona g'azallarda an'anaviy holatda ma'shuqa jafokor, haqiqiy oshiqqa bee'tibor, oshiq esa ma'shuqadan iltifot umidvor bo'lган jafokash sifatida ifodalanadi. Hazrat Navoiy ham ushbu an'anani davom ettirar ekan, o'ziga xos tarzda yondashadi:

*Yor og 'iz ochmasqa dardim so 'rg 'ali toptim sabab,
Ko 'p chuchuklikdin yopishmishlar magar ul ikki lab [2. 35].*

Oshiq o'z ma'shuqasining uning dardidan, ahvolidan xabar so'ramasligining "sababi"ni kashf etadi. Ya'ni yorning lablari shu darajada "chuchuk"ki, bu sababdan "yopishmishlar magar ul ikki lab". Shu bois u oshiq ahvolini so'rash uchun og'iz ochoholmaydi. Baytda qo'llanilgan tanosib va mubolag'a orqali original tasvir yaratilgan. Shuningdek, ma'shuqaning oshiq ahvolini so'ramasligining shoirona sababi – husni ta'lil kitobxonning yanada hayratga soladi. Ushbu

misralardagi fikrlarga hamohang yana bir baytni ko‘rish mumkin. Quyidagi she’r parchasi mazmunan yuqoridagi misralar bilan bog‘lansa-da, ifoda uslubi va fikr ta’sirchanligi bilan ajralib turadi:

*Lablaringkim hayf erur teng tutmoq ani qand ila,
Sindurur yuz qand bozorini shakkarxand ila [3.415].*

Keltirilgan ushbu misrada ham yor lablarining shakar kabi shirin ekanligi, hatto, qand bilan ham uni teng tutmoqlik hayf ekani ta’kidlanyapti. Bu lablarning bir shirin tabassumi yuz qand bozorini ham kasodga uchratadi. Chunki uni ko‘rgan kishilarning qandga ehtiyoji qolmaydi. Natijada qand bozori kasodga uchraydi. Mubolag‘aning o‘rinli qo‘llanilganligi fikr ta’sirchanligini yanada oshirgan.

Aytish mumkinki, Navoiy g‘azallarida ma’shuqaning tana a’zolaridan: yuzi oyga, porloq tongga, safhaga, yulduzga, quyoshga, lolaga; qoshi egilgan yoyga, yangi hilolga, mehrobga; qaddi sarvga, alifga; lablari shakarga, qand-u nabotga, o‘ymoqqa, zarrachaga, la’lga, gulg‘unchaga; xoli nuqtaga; kipriklari o‘q - yoyga, nayzaga, tikanga; sochlari ilonga, yaldo tuniga o‘xshatib, har birida o‘ziga xoslikka erishilgan. Shuningdek, zulfi, xoli, sochlari bir umumiylit ostida, ya’ni xushbo‘y mushki anbar kabi ekanligini aytса, lablarining qon, anor kabi qizilligi tavsiflanadi. Demak, inson ta’na a’zolari va ularga oid tashbehlar ijodkor fikrlarining badiiy ifodasiga xizmat qilgan.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES)

1. Навоий Алишер. Муқаммал асарлар тўплами. XX жилдлик. I жилд. Бадоев ул-бидоя. – Тошкент: Фан, 1987. – 689 б.
2. Навоий Алишер. Муқаммал асарлар тўплами. XX жилдлик. II жилд. Наводир ун-ниҳоя. – Тошкент: Фан, 1987. – 622 б.
3. Навоий Алишер. Муқаммал асарлар тўплами. XX жилдлик. III жилд. Фаройиб ус-сиғар. – Тошкент: Фан, 1987. – 575 б.
4. Навоий асарлари луғати. Тузувчилар: П.Шамсиев ва С. Иброҳимов. Тошкент: F. Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашириёти, 1973. – 784 б.
5. Amonova Z. Jamoling mus’haf (mus'haf countenance) // Центр научных публикатсий (buxdu. uz). – 2021. – Т. 8. – №. 8.
6. Amonova Z. Husayniyning badiiy mahorati // Центр научных публикатсий (buxdu. uz). – 2022. – Т. 16. – №. 16.

7. Amonova Z. K. The image of Mansour Hallazh in Mashrab's poetry //image. – 2020. – T. 1. – C. 26-2020.

NAVOIY ASARLARIDA INSON UMRINING DAVRLAR ASOSIDAGI TALQINI

Tohir XO'JAYEV,
Navoiy DPI dotsenti, f.f.n.

ANNOTATSIYA

Maqolada Alisher Navoiy asarlarida inson umrining turli davrlariga berilgan ta'rif va talqinlar tahlilga tortilgan.

Kalit so'zlar: sig'ar, tufuliyat, shabob, kuhulat, kibar;

АННОТАЦИЯ

В статье анализируются определения и интерпретации, данные различным периодам жизни человека в творчестве Алишера Навои.

Ключевые слова: сигар, туфулият, шабаб, кухулат, кибар;

ABSTRACT

The article analyzes the definitions and interpretations given to different periods of human life in the works of Alisher Navoi.

Key words: cigar, tufuliyat, shabob, kuhulat, kibar;

Alisher Navoiy asarlarida inson, uning umri, yigitlik davri, qarilik xususida ko'pdan ko'p mulohazalar bildirilgan. Shoir insonning yashash davrini "sig'ar" yoki "tufuliyat" – yoshlik, "shabob" – yigitlik, "kuhulat" – o'rta yoshlik, "kibar" – qarilik, keksalik tarzida sharhlaydi. Har bir davrning yosh chegaralarini ham ko'rsatib, ularni yil fasllari-bahor, yoz, kuz, qishga qiyoslaydi. Navoiyning deyarli barcha asarları – she'riyati, dostonlari, nasriy asarlarida ham bu narsani kuzatamiz. Ayniqsa, "Xamsa", "Xazoyin ul-maoniy", "Nazm ul-javohir", "Mahbub ul-qulub" kabi asarlarida bu jihat ko'zga ko'proq tashlanadi.

Har bir davrda, deyarli ko'pchilik boshqa fasllarga qaraganda bahorni xush ko'radi. Bu insonning yoshlik, yigitlik davri sifatida qaraladi. Navoiy ham yigitlik, yoshlikni inson umrining go'zallik, aysh-u xursandlik davri deya baholaydi.